

EFFECTS OF DEFOLIANTS ON TECHNOLOGICAL QUALITY AND CHICKEN OIL AND NUCLEAR OUTPUT OF COTTON CULTIVATED IN WEAKLY DEGRADED AREAS

Uljaboev Alijon Abdullajonovich

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti dotsenti q.x.f.f.d

Komilova Nafosat Alimardon qizi

AGR (KT) yo'nalishi 1-bosqich talabasi

To'xtasinov Muxammadyusuf Dilmurodjon o'g'li

AGR (KT) yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Abstract:

The technological indicator of cotton fiber, chicken oil, and the effects of defoliants on nuclear output in questioning the growth and development of the S-8290 grain variety, which is being cared for in the weakly salted soils of the province of Anchorage.

Keywords: Weak saline field, UzDEF and PolyDEF defoliants, S-8290 grain variety, cotton fiber, oil in the chicken nucleus.


Introduction

Ma'lumki, g'o'zani parvarishlashda tolaning texnologik sifat ko'rsatkichlari muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, yetishtirilgan paxta xomashyosidan olinadigan asosiy mahsulot tola va chigit hisoblanib, undan yuzdan ortiq mahsulotlar tayyorlanadi. Ishlab chiqarish sharoitida texstil maxsulotlari uchun ishlab chiqaruvchilarning talabiga qarab tola sifati belgilanadi va shunga ko'ra qabul qilishadi. Paxta tolasini sifatiga tuproq-iqlim sharoiti, g'o'za tur va navlari, agrotexnik tadbirlar kabi omillar bilan bir qatorda tuproqlarning sho'rlanganlik darajasi ham ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, qo'llanilayotgan defoliantlar ham tola sifatiga ta'sir etishi mumkin.

Dropp ultra bilan solishtirganda Etrek defolianti o'simlik barglari to'kilishi samarali bo'lgan. Bunda Yetrel defolianti qo'llanilganda pishib yetilmagan ko'saklarda majburan yetuklikka erishilganda ham har qanday ko'sak tola sifat belgilariga salbiy ta'sir ko'rsatmagan S.S.Mehetre, A.V.Tendulkar and others.

Bizing tadqiqotlarimizda ham kuchsiz sho'rlangan tuproqlar sharoitiga qarab, UzDEF va PoliDEF defoliantlarning paxta tolasini texnologik sifat ko'rsatkichlariga ta'siri o'rganilib borildi. Olingan ma'lumotlar 1-rasmda ko'rsatilgan.


Tola sifatini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar HVI apparatida olib borildi. Olib borilgan (2022 yil) tadqiqot natijalariga ko'ra, Farg'ona viloyatining Kuchsiz sho'rlangan maydonlarda defoliatsiya qilinishi rejalashtirilgan fonning nazorat variantida tolaning mikroneyr ko'rsatkichi 4,6 ni, solishtirma uzilish kuchi 32,5 gf/tex ni, tola uzunligi 1,06 dyuym ni, uzunlik bo'yicha bir xillik indeksi 82,6% ni, kalta tolalar indeksi 5,0% ni, uzilishdagi uzayishi 5,2% ni, tresh kodi 1,0 ni, iflos aralashmalar soni 5,5% ni, iflos aralashmalar maydoni 0,1% ni, nur qaytarish koeffitsienti 80,4% ni, sarg'ishlik darajasi 8,0 ni tashkil etgan bo'lsa, etalon sifatida SuyuqXMD defolianti 8,0 l/ga me'yorda qo'llanilgan variantda mikroneyr ko'rsatkichi 4,6 ni, solishtirma uzilish kuchi 32,6 gf/tex ni, tola uzunligi 1,07 dyuym ni, uzunlik bo'yicha bir xillik indeksi 82,9% ni, kalta tolalar indeksi 5,3% ni, uzilishdagi uzayishi 5,5% ni, tresh kodi 2,0 ni, iflos aralashmalar soni 8,0% ni, iflos aralashmalar maydoni 0,2% ni, nur qaytarish koeffitsienti 80,4% ni, sarg'ishlik darajasi 8,1 ni tashkil etganligi aniqlandi. UzDEF defolianti 5,0-6,0-7,0 l/ga me'yorlarda qo'llanilgan variantlarda tolaning mikroneyr ko'rsatkichi 4,4 dan 4,5 gacha o'zgarganligi, solishtirma uzilish kuchi 32,6-33,1 oralig'ida bo'lganligi va tola uzunligi 1,10-1,12 dyuym gacha bo'lganligi kuzatilib, tola uzunligi nazorat bilan bir xil bo'lganligi kuzatildi. Umuman olganda, olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, defoliantlar turi va qo'llash muddatlariga, turlicha meliorativ sharoitda yetishtirilgan g'o'za o'simligiga UzDEF va PoliDEF defoliantlarini maqbul me'yorlarda qo'llash paxta hosili sifat ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi, aksincha defoliatsiya o'tkazilmagan nazorat variantiga nisbatan defoliantlarni maqbul me'yorlari tolaning ba'zi texnologik sifat ko'rsatkichlari biroz yaxshilanishi aniqlandi. Ammo kuchsiz sho'rlangan maydonlarda UzDEF va PoliDEF defoliantlari maqbul me'yorlarda qo'llanilganda ayrim tolaning mikroneyr ko'rsatkichi biroz dag'allashib borganligi bayon etilgan (1-rasm).



1-rasm. Kuchsiz sho'rlangan maydonda etishtirilgan paxta tolasining, texnologik sifat ko'rsatkichi.

F.Teshaevning tadqiqotlarida chigitning yetilganlik darajasi va moydorligi ham o'rganilgan bo'lib, bunga ko'ra, 2008 yil ma'dan o'g'itlar 3uch hil fonda yani N₁₅₀R₁₀₀K₇₅ kg/ga, N₂₀₀R₁₄₀K₁₀₀ kg/ga, N₂₅₀R₁₇₅K₁₂₅ kg/ga, me'yorlarda qo'llanilgan fonning nazorat (defoliatsiya qilinmagan) variantidan olingan namunalar tahlil qilinganda chigitning pishganlik darajasi yaxshilanganligi, pirovardida uning moydorlik darajasi ham biroz oshganligi kuzatilgan.

Kuchsiz sho'rlangan tuproqlar sharoitida olib borilgan izlanishlarda (2022-2023 yy) S-8290 g'o'za navi ko'saklarining ochilish muddatlariga bog'liq holda chigitning sifat ko'rsatkichlariga UzDEF va PoliDEF defoliantlarining ta'siri o'rganildi. Bunda erta muddatlarda, ya'ni G'o'za ko'saklari 45-50% ochilgan muddatda defoliatsiya o'tkazilgan kuchsiz sho'rlangan maydonda nazorat variantida 1000 dona chigit vazni 119,1 g. ni tashkil etib, chigitning yadro chiqimi 51,1% ga, chigit moydorligi 31,3% ga teng bo'ldi. Andoza sifatida o'rganilgan SuyuqXMD defoliant qo'llangan variantda 1000 dona chigit vazni 124,8 g. ni tashkil etib, chigitning yadro chiqimi 50,0% ga, chigit moydorligi 30,8% teng bo'ldi. UzDEF va PoliDEF defoliantlari gektariga 5,0-6,0-7,0 l qo'llanilgan variantlarda chigitning yadro chiqimi va chigit moydorligi yuqori bo'lidi. Eng yuqori natijalar gektariga UzDEF va PoliDEF defoliantini 7,0 l/ga me'yorda qo'llanilgan variantlarda olinib, nazorat variantiga nisbatan mos ravishda chigitning yadro chiqimi 1,2-1,0% ga, chigit moydorligi 1,1-1,0% ga yuqori bo'lgan bo'lsa, SuyuqXMD variantiga nisbatan, UzDEF va PoliDEF defoliantini 7,0 l/ga me'yorda qo'llanilgan variantlarga mos ravishda chigitning yadro chiqimi 1,5-1,3% ga, chigit moydorligi 1,6-1,5% ga ortganligi kuzatildi.



2-rasm. Kuchsiz sho'rlangan maydonda etishtirilgan paxta chigitining moydorligi va yadro chiqimi.

Demak, xulosa qilib aytadigan bo'lsak izlanishlar natijasidan shu narsa ayon bo'ldiki, o'rganilayotgan yangi UzDEF va PoliDEF defoliantlari sho'rlanish ortib borishi xisobiga

ma'lum miqdorda 1000 dona chigit vazni kamayib borishi hisobiga, chigitning boshqa sifat ko'rsatkichlari ham o'zgarib borishi tajribada o'z tasdiqini topdi.

Foydalanilgan adbiyotlar ro'yxati.

1. Улжабоев, А. А. (2020). Влияние различной степени засоления почв на всхожесть семян, рост и развитие хлопчатника. *Актуальные проблемы современной науки*, (1), 97-99.
2. Улжабоев, А. А. (2019). Влияние засоления на рост и развитие хлопчатника. In *Advances in Science and Technology* (pp. 18-20).
3. ULJABOEV, A., & Tukhtasinov, A. Effect Of Soil Salinity On Cotton Leaf Development And Defoliation Efficiency. *Journal NX*, 7 (02), 368-370.
4. Abdullajonovich, U. A., & Nodirjon, K. M. (2022). Efficiency of Defoliation on Low Salt Fields. *The Peerian Journal*, 5, 1-7.
5. Abdullajonovich, U. A., & Mamurjan O'g'li, O.A. (2022). Effect Of Soil Salinity On Cotton Leaf Development And Weight Change. *Eurasian Research Bulletin*, 14, 287-289.
6. Abdullajonovich, U.A. (2023). Sho'rlangan tuproq sharoitida S-8290 g'o'za navining amal davrida o'sishi va rivojlanishi. *Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali*, 3 (6), 52-54.
7. Abdullajonovich, U.A. (2023). Influence of planting date and soil conditions on the germination of cotton seeds sultan. *Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali*, 3(6), 72-73.
8. Улжабоев, А., & Козимжонова, М. (2023). Тупроқ шўрланишининг ғўза ҳосил шохлари бўғин ораликлари ҳамда ҳосил шохларида жойлашган кўсакларнинг бўғин ораликлари шаклланишидаги роли. *Евразийский журнал академических исследований*, 3 (2 Part 2), 54-56.

